XALQ DEPUTATLARI OLTINSOY TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 11-may VI-66-75-8-108-K/24 Oltinsoy tumani

Oltinsoy tumani 2024-yil I chorak mahalliy budjetining daromadlarining xarajatlaridan oshgan qismi hisobidan mablag‘ ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son Qonuniga muvofiq mahalliy budjetining 2024-yil I chorak daromadlarining xarajatlaridan oshgan qismi mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning bergan taklifi hamda deputatlar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalarni inobatga olib, xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1.Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i S.Saidaxmedovning tuman mahalliy budjetining 2024-yil I chorak daromadlarining xarajatlaridan oshgan qismi mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha bergan taklifi hamda deputatlar tomonidan bildirilgan fikr mulohazalar ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman budjetining joriy yil I chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi **981 811 000** so‘mni tashkil etganligi hamda ushbu mablag‘lar hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritilgan takliflar doirasida yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risidagi tuman hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining hisoboti tasdiqlansin.

3. Tuman budjetining joriy yil I chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidan quyidagi maqsadlarga yo‘naltirilsin:

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son qarori va va 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409 son Qaroriga muvofiq, jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun 30 foizi 295 000 000 so‘m mablag‘ tuman hokimligi huzurida ochilgan tashabbusli budjet jamg‘armasiga o‘tkazib berilsin.

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020-yil 8-oktabrda Jamiyatda ayollar va yoshlarning o‘rnini oshirish hamda bandligini ta’minlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida (79-son bayonning 12-bandi) “Yoshlar daftari” va “Ayollar daftariga” kiritilgan yoshlar va ayollarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida har chorakda daromadlarning xarajatlardan oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan kamida 15 foizi yoshlar va ayollar jamg‘armasiga ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin;

-“Yoshlar daftari”ga kiritilgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuzilgan “Yoshlar daftari” jamg‘armasiga 50 000 000 so‘m;

- tuman hokimligi apparati (tuman hokimi va o‘rinbosarlari bundan mustasno), texnik xodimlari va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi xodimlariga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdoridan har bir xodimga (1 050 000) so‘mdan qo‘shimcha ish haqi va unga tengashtirilgan to‘lovlar uchun 90 510 000 so‘m;

-xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashi kotibiyati xodimlariga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori va bazaviy hisoblash miqdoridan har bir xodimga (1 050 000) so‘mdan qo‘shimcha ish haqi va unga tengashtirilgan to‘lovlar uchun 4 525 500 so‘m;

- tuman hokimiyatiga Boysun tumanida o‘tkaziladiga “Boysun bahori” xalqaro festivali tadbirlarini tashkil etish bilan bog‘liq sarf xarajatlar uchun 250 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga tuman “Jilibuloq” mahallasida joylashgan Madaniyat markazi binosida joylashgan 1-sektor shtabiga gilam sotib olish uchun 13 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga tuman hokimining o‘rinbosari A.Raximovning Xitoy Xalq Respublikasining Urumchi va Guanchjou shaharlarida bo‘lib o‘tadigan biznes va ishbilarmonlik tadbirlarida ishtiroki bilan bog‘liq xizmat safari xarajatlarini qoplash uchun 22 800 000 so‘m;

-tuman hokimligiga moddiy texnik bazasini mustahkamlash maqsadida kompyuter jamlanmasi va printeruskunasi sotib olish uchun 15 000 000 so‘m;

- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga 2024-yilda “Yashil makon” umumilliy loyihasi doirasida tumandagi “Mo‘minqul” mahallasida tashkil etilgan “Yashil bog‘”ning atrofini o‘rashda zarur bo‘ladigan sim setkalarni sotib olish va o‘rnatishda zarur bo‘ladigan qurilish mahsulotlari sotib olish va sug‘orish tizmini tashkil qilish maqsadida polietilen quvurlar sotib olish uchun 50 000 000 so‘m;

- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi ichki ko‘chalarni toshlash hamda mahallalarda obodonlashtirish ishlarini tashkil etish maqsadida dizel yoqilg‘isi sotib olish uchun 50 000 000 so‘m;

- tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga tumandagi mahallalar infuratuzilmasini yaxshilash hamda mahallalarni obodonlashtirish ishlarini tashkil etishda zarur bo‘ladigan sement mahsuloti sotib uchun 50 000 000 so‘m;

- tuman hokimligiga ish hajmining ortganligi sababli qo‘shimcha jalb qilingan mutaxassislar Qarshiyev Muzaffar Mirzaaxmadovich va Roziqov Mamasaidlar bilan 2024-yilda tuzilgan shartnomaga asosan 1 oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari uchun jami 7 200 000 so‘m;

- tuman Soliq inspeksiyasiga terminal (sayt) qurilmasini xarid qilish uchun 73 400 000 so‘m pul mablag‘lari ajratilsin.

4. Tuman budjetining joriy yil I chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi mablag‘lari hisobidan yo‘naltirilgan mablag‘lar to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga chorak yakuni bilan hisobot berib borilsin.

5. “Xalq va hayot” gazetasi tahririyati (N.Temirov)ga ushbu qarorni matbuotda yoritish tavsiya etilsin.

6. Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlanganligi yuzasidan mutasaddi tashkilotlar tomonidan xalq deputatlar tuman Kengashiga har chorak yakuni bo‘yicha yozma axborot berib borish yuklatilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Oltinsoy tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Q.Turdiyev) zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi  MAXMATRAYEMOV BAXROM OMONOVICH